

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING YARATILISH SABABLARI

Mamajonov Soyibjon Halilovich

*Farg'onan Davlat Universiteti harbiy
ta'lif fakulteti o'qituvchisi, dotsent.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining mustaqillik yillarida qayta qurish davrlari xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lif muassasalari talabalariga Qurolli kuchlarimizning mustaqillik yillarida qayta qurish davrlari bilan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, davlat bayrog'i, Markaziy hukumat, favqulodda holat, asriy orzu, Qurolli Kuchlar, siyosiy jarayon, qonuniy poydevor, davlat manfaatlari, Bosh Shtab, professional armiya, Qurolli Kuchlarda islohotlar etaplari.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonning natijasi bo'ldi. O'zbek xalqi qariyb 3000 yillik tariximizda qisqa vaqtgina mustaqil yashagan xolos. Ayniqsa, keyingi oq va qizil sultanatning 130 yil davom etgan hukmronligi o'z tarixiy davlatchiligiga ega bo'lgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi kurash goh pinhona, goh oshkora bo'lsin xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intildi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, O'zbekiston SSR jumhuriyati Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston

Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ma’ruza qildi. U o‘z nutqida 1991-yil o‘rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19-21 avgust kunlari Moskva Favqulodda holat davlat komiteti a’zolarining xalqlar ozodligi, jumhuriyatlar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro‘y-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildilar. So‘ngra Respublika Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSR ning nomi O‘zbekiston Respublikasi deb o‘zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun 1-sentyabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar O‘zbek xalqining asriy orzusi ro‘yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo‘ldi.

Mustaqillik tufayli Vatanimiz o‘zining Qurolli Kuchlariga ega bo‘ldi. Qurolli Kuchlarimiz safida xalqimizning qaxramonona an’analariga sodiq bo‘lgan o‘g‘lonlari o‘zlarining yigitlik burchlarini ado etib kelmoqdalar.

Ular mamlakatimizning himoyasi, xalqimizning tinchligini saqlash uchun doimo shay turadilar, xar qanday mashaqqatlarni yengishga doimo tayyor turishadi.

O‘sha davrda Mintaqada shakllangan harbiy-siyosiy sharoitga ko‘ra va dunyoda kechgan siyosiy jarayonlarning rivojini tahlilidan kelib chiqib, 1992 yil 3- iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Soveti «Mudofaa to‘g‘risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat» to‘g‘risida, «Muqobil xizmat» to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qildi. Yosh mustaqil davlat talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarining yaratilishida mustahkam qonuniy poydevor yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi, davlat manfaatlarini himoya etish uchun yetarli bo‘lgan Qurolli Kuchlarini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Qurolli Kuchlarni yaratilishini boshlab bergen bir necha m’eyoriy hujjatlar imzolandi. Ularning birinchilari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 6 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari Vazirligi va Qurolli Kuchlar

Bosh Shtabining yaratilishi» to'g'risidagi qaroring imzolanishidir. Ularning maqsadlari- bosqichma-bosqich professional armiyani yaratish, tarkibi bo'yicha kam sonli, lekin harakatchan, zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog' bilan jihozlangan, O'zbekiston xavfsizligini mustaqil va ishonchli himoya etishga qodir armiyani yaratish edi.

1992- yildan boshlab 2005- yilgacha bo'lgan davrda uch davrdan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qayta qurish davrlari amalga oshirildi. Uning uchunchi davrida eng asosiysi Qurolli Kuchlarda islohotlarning etaplari boshlandi. U ham uch etapdan iborat bo'ldi va hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan, yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli kuchlarni barpo etish va milliy armiyamizni shakllantirish borasida o'zining mohiyati va ko'lamiga ko'ra tom ma'noda ulkan ishlar amalga oshirildi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan va kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni har tomonlama tahlil etish asosida armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.



ADABIYOTLAR:

1. Mamajonov.S.H. (2023). International Multidisciplinary Journal for research & development. Against Amir Temur's park reasons for walking. 10, 26-28.
2. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). Amir Temur armiyasining tashkil etilishi va tuzilishi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(12), 1037-1040.
3. Mamajonov.S.H. (2023). Qo‘sinning hordiq uchun to‘xtashi va lagerda joylashishi. Journal of new century innovations, 20, 62-64.
4. Mamajonov.S.H. (2023). Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование, наука и инновационные идеи в мире». Amir Temurning 1391 yilning 18 iyunida kondurcha daryosi bo‘yidagi jangida qo‘sini jangovar tartibi. Journal of new century innovations, 18, 95-98.
5. Mamajonov.S.H. (2023). Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». Amir Temurning 1391 yilda Oltin O‘rdaga harbiy yurishi. 18, 363-366.